

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume 1, Issue 5

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



IMFAKTOR
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Психология фанлари

MAMADJANOV Ismoiljon Ibragimdjon o'g'li
Guliston davlat universiteti
magistranti

MAMADJANOVA Irodaxon Olimxon qizi
Guliston davlat universiteti
talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7991446>

AJRIM HOLATI KUZATILGAN OILA FARZANDLARIDA KUZATILADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oilaviy ajrimlardan keyin farzandlarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, ajrim, farzand, psixologik inqiroz, axloq-odob, muloqot, respondent, jamiyat, zo'ravonlik, temperament tipi.

МАМАДЖАНОВ Исмаилжон Ибрагимджон огли
Государственный университет Гулистана
магистрант

МАМАДЖАНОВА Иродахан Олимхон кизи
Государственный университет Гулистана
студент

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ, НАБЛЮДАЕМЫЕ У ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ, В КОТОРОЙ НАБЛЮДАЕТСЯ ДИССОЦИАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются психологические изменения, наблюдаемые у детей после разделения семьи.

Ключевые слова: семья, разобщенность, ребенок, психологический кризис, мораль, общение, респондент, общество, насилие, тип темперамента.

MAMADJANOV Ismailjan Ibragimdjani ugli
Gulistan State University
master

MAMADZHANOVA Irodaxan Olimxon kizi
Gulistan State University
student

PSYCHOLOGICAL CHANGES OBSERVED IN CHILDREN IN THE FAMILY, IN WHICH A DISSOCIATIVE STATE IS OBSERVED

ANNOTATION

Finding family after the psychological changes observed in children in this article have been analyzed.

Keywords: Family, interim, children, psychological crisis, ethics-ethics, communication, respondent, society, violence, the type of temperament.

Oila jamiyat tayanchi va ustunidir. Ota-ona esa bamisoli ko‘zgu, farzand shu ko‘zguga boqqancha psixologik, fiziologik, anatomik jihatdan tarbiya topib unib ulg‘ayadi. *“Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma‘naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo‘lur edi”* [1].

Farzand tarbiyasida e‘tibor berishimiz muhim bo‘lgan omillar mavjud: farzand o‘zligini anglashda to‘g‘ri yo‘l tanlash va uni kamsitib yerga urmaslik, yoshidan qat‘iy nazar shaxs sifatida hurmat qilish, agar xato qiladigan bo‘lsa qilingan xatoning ko‘lamidan kelib chiqib unga to‘g‘ri tushuncha berish zarurligi inobatga olingan. Ijtimoiy sog‘lom psixologik muhit shakllantirilgan oilada dunyoga kelib voyaga yetadigan farzandlarning dunyoqarashi va fikrlashida, fikrini bayon qila olishi va qiziqishlari, kelajakda o‘z o‘rnini topib keta olishiga ko‘ra nosog‘lom muhitda voyaga yetgan, shaxs sifatida qadr topmagan farzandga nisbatan ancha farq qiladi va bir muncha oldinda bo‘ladi.

Ijtimoiy so‘rovnomada qatnashgan 203 nafar respondentlarning fikriga ko‘ra ajrimdan so‘ng farzandlarda stress, asabiylik, “Men” shakllanishida ortda qolishi, o‘z fikrini bayon qila olishida muammolarga duch kelishi, doimiy tushkunlik va to‘liqsizlik hissini tuyadi, kuchli inqiroz davrini boshidan kechirishi haqida respondentlar fikrini o‘qishimiz mumkin. Agar oilada nosog‘lom muhit hukmronlik qilsa va farzandlar muntazam ravishda bosim ostida yashasa, otasi yoki onasi tomonidan bosim, zo‘ravonlik, tayziqqa uchrasa unday holatda ajrim farzandlar uchun ijobiy samara berishi ehtimoli ham mavjud. Bu kabi misolni ijtimoiy so‘rovnomaning **“Ajrimdan so‘ng farzandlarda qanday psixologik holat kuzatilishi mumkin?”** savoliga respondentlardan biri “Meni bolalarimda yaxshi chunki dadasi ichib kelib urardi” deya izoh qoldirgan va bu javobni bitta misol sifatida olishimiz mumkin. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo‘lmasligi kerak. *“Juda qattiq jazolash bolada qo‘rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo‘ladi. Ko‘proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoqlashadi, emotsional befarq bo‘lib qoladi hamda yuqori agressivlikni namoyon etadi”* [2].

Ajrim sodir bo‘lgan oilada farzand o‘ziga bo‘lgan ishonchi tushib ketadi va jamiyat bilan o‘zaro integratsiya jarayoni kechikadi. *“Odamlar o‘rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatligi va shu kabilarining barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qo‘yish, hatto o‘z joniga qasd qilish kabilar ham shu muloqotning natijasidir”* [3].

Ya'ni oilada konfliktli vaziyatlar ham yuzaga kelib chiqishi bilan birgalikda shu konfliktli vaziyatlarga yechim ham topish mumkin. Ajrimni yuzaga keltiruvchi bir qator omillar: kam ta'minlanganlik, farzandsizlik, oilaviy ziddiyatli vaziyatlar, uchinchi shaxs aralashuvi vkhz holatlar sababli bugungi kunda ajrim holati kuzatilib kelmoqda va shu holatning ortidan farzandlar ota-onasi hayotlik davridayoq yarim yetim bo'lib psixologik inqirozni boshidan kechirmoqda. Farzandlarda kuzatiladigan ijtimoiy-psixologik holatlar temperament tipiga ko'ra almashuv holati kuzatilishi mumkin. Sangvinik tipidagi quvnoq farzandning ota-onasi ajrimga qaror qilgach psixologik inqirozni boshidan kechirib undagi ijobiy kayfiyat o'rnini salbiy emotsiyalar egallay boshlaydi.

Xolerik yoki melanholik tip ustunlik qilishi, asabiy, kamgaplik holati kuzatilgan holda ommadan o'zini olib qochishi mumkin. Oilaviy hayotda hamma narsa ham odam kutganidek bo'lavermaydi. Oilaviy hayotning o'ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo'ladi. Turmush quruvchi ikki yoshning oilaviy hayotga tayyor emasligi, psixofiziologik bilimga ega emasligi ortidan birgina gormonal faollashuv davri haqida tushunchaga ega bo'lmay turib farzand ko'rish, buni ortidan esa ziddiyatli vaziyatlarning kelib chiqishi ham oilani ajrimga yetaklaydi. Ya'ni bu kabi oilalarda fiziologik inqiroz davri injiqlik, o'zidan ketish deb baholanish ehtimoli katta. Ijtimoiy so'rovnomada kuzatilgan yana bir qiziq holatni yahlil qiladigan bo'lsak, **Oilani saqlab qolish uchun farzandlar borligini ro'kach qilish, sabr qilib yashashga qanday qaraysiz** degan savolga 203 nafar respondentlar javob variantidan 12 nafar ajrim toifasiga kiruvchi respondentlar natijasi tahlil qilinganda "majburiy yashamaslik kerak", "farzandni ham ro'kach qilib oilani ushlab qolish u eng katta xato", "chidab yashash kerak" kabi javoblar berilgan.

50 ga 50. Lekin majburiy tarzda oilani saqlab qolishga urinish, farzand borligini ro'kach qilib ushlab turish vaziyatni faqatgina qiyinlashtiradi. Bugungi kunda oilaviy zo'ravonliklarni ko'payib ketishi va buning ortidan qotillik ham sodir bo'lishi ortida majburiy oila tushunchasi turadi. Ajrim farzandni ruhan cho'ktiradi, lekin ruhan nosog'lom muhit hukmronlik qilgan oilada ulg'aygan, u sababli majburlikdan yashab kelinayotganini qayta-qayta eshitgan farzandni ham psixologik sog'lom deyish noo'rin hisoblanadi. Oilada ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit hukmron bo'lsa, er-xotin bir-birini tinglasa va ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda hissiyotga berilmasdan yechimni muzokara yo'li bilan hal etishga urinsa, farzandni tinglasa va uning qiziqishlari, mavzular yuzasidan suhbat olib borilsa, er-xotin bir-birini hurmat qilib o'zaro munosabatlarda ham to'g'ri yo'lni tanlagan oilada muammolar muammoli vaziyat emas shunchaki sodir bo'lishi lozim bo'lgan holat deb qabul qilinadi va bu kabi oilalar vaziyatlarga nisbatan to'g'ri qaror qabul qila oladi.

Ajrimlar soni ortib ketmoqda shunday ekan oilaviy ajrimlarni ommaviy tarzda ta'qiqlab qo'yish orqali ajrimlar sonini kamaytirsam bo'lmaydimi? Bu usulni Italiya va Niderlandiya yaqin zamonlarga qadar qo'llab kelgan, ya'ni huquqiy ajrim nihoyatda qiyinlashtirib yuborish ortidan ajrimlarni kamaytirish rejasi teskari reaksiya sifatida ishlab ketish orqali jamiyatda tartibsiz jinsiy aloqa, jinsiy yo'llar bilan yuquvchi kasalliklar, hiyonat, qotillik, nikoh yoshining o'sib ketishi holatlari kuzatilgan, oila qurish istagi kamayib ketish holatlari kuzatilishi mumkin [4].

Bundan tashqari bir qator fiziologik, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Oilaviy ajrimlarni saqlab qolish maqsadida ajrimni qiyinlashtirib qo'yish ortidan yuzaga keluvchi omillarni bartaraf etish o'rniga ajrimni oldini oluvchi tizimli mexanizm ishlab chiqish samarasi yuqori natija ko'rsatadi. Farzandlarni nosog'lom muhitda psixologik travmalar bilan voyaga yetkazib, nosog'lom avlodni shakllantirish o'rniga ba'zi holatlarda ajrim ham to'g'ri yechim bo'ladi. Ya'ni ajrim farzandlarda psixologik travma keltirib chiqaradi, nosog'lom muhitda konfliktlarni guvohi bo'lib, "aybdorlik" hissini tuygan holatda voyaga yetgan farzandda ham psixologik travmasi bo'ladi.

IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES

1. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. I.Karimov. –T.: “Ma’naviyat”, 2016.- 55b.
2. Z. Nishanova, M. Xolnazarova va b.lar “Rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya” kitobi. –T.: “Ofset Print”, 2019. -383 b.
3. Oila psixologiyasi. G'.Shoumarov. –T.: “SHARQ”, 2011.-149b.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilaviy-ajrimlar-ularning-sabablari-ajrimlarning-oldini-olishning-psixologik-mexanimzlari-1/viewer> T. Isaqova ilmiy maqolasi.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz